

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**



XORIJIY SHARQ TILI (FORS TILI)

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200 000-San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230 000-Tillar
Ta'lim yo'nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (sharq tillari bo'yicha)

Toshkent-2024

Fan/modul kodi XShT11-874	O'quv yili 2024/2025 2025/2026 2026/2027 2027/2028	Semestr 1,2,3,4,5,6,7,8	ECTS - Kreditlar 10,10,10,10,10,10,8,6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 10,10,10,10,10,10,8,6	
Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1. Xorijiy sharq tili (fors tili)		888	1332	2220

I. Fanning mazmuni

Fanning maqsadi - talabalarga hozirgi fors tilining nazariy va amaliy asoslari haqida atroflicha bilim berish, ularda fors tilida erkin va mustaqil mushohada yuritish, egallagan bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llash malakasini shakllantirish, soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot olib borish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. To'rt yilga mo'ljallangan kurs mobaynida talabalar fors tiliga oid asosiy ma'lumotlarni bilib olish bilan birga, tilning uslublari, tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid ko'nikmalarga ham ega bo'lishlari e'tiborga olinadi.

Fanning vazifasi - nutq amaliyoti talabalarning mantiqiy tafakkurini, chet tilidagi nutqiy qobiliyatini, xotirlash turlari, fikrlari, umumnutqiy va umumta'limiy yo'riqlarni, til bo'yicha mustaqil ishlash malakalarini rivojlantiradi. Fors tili darslarida turli nutqiy vaziyatlarga taalluqli bo'lgan autentik kasbiy-yo'naltirilgan fikrlarning asosiy mazmunini bir marotaba eshitishda to'liq tushunish va zaruriyat tug'ilganda undan aniq ma'lumotni ajratish; ro'y berayotgan voqea-hodisalar haqidagi yangiliklar va reportajlarni tushunish, shuningdek, ko'pgina filmlarni, agar ularning qahramonlari adabiy tilda gapirayotgan bo'lsa, mazmunini tushunish, kasbiy-yo'naltirilgan kommunikativ vaziyatlarga taalluqli erkin va standart dialoglarda ishtirok etish, o'z ona tili va fors tilida o'qilgan yoki tinglangan ko'pgina autentik fikrlar (diskurs) asosida tilga oid, nutqiy va mazmuniy tayanchlardan foydalangan holda kasbga yo'naltirilgan ma'lumotlarni ifodalash uchun monologlarning barcha turlarini tuzish, bu esa ta'limning ushbu bosqichida nutqning fan mazmuni asosidagi fanlararo aloqalardan foydalanishni nazarda tutadi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-bosqich. Boshlang'ich bosqich

1-mavzu. "Asosiy sharq tili" (fors tili) fanining mazmuni, predmeti va metodi

Fors tilining tarixi va shakllanish bosqichlari. Fors tilining nazariy-

metodologik manbalari haqida umumiy ma'lumotlar.

2-mavzu. Fors tilidagi fonemalar tizimi

Fonema va harf tushunchasi. Fors tilidagi unli tovushlar. Diftonglar. Undoshlar. Cho'ziq va qisqa unlilar.

3-mavzu. Fors tili yozuv tizimi

Cho'ziq va qisqa unlilarning yozuvda ifodalanishi. Fors tilida "x" va "h" harflarining qo'llanilishi. "Ayn" harfini yozish va o'qish qoidalari. Ba'zi birga kelgan harf birikmalarining o'qilish qoidalari. Fors-arab yozuvida ishlatiladigan ba'zi harakatlar.

4-mavzu. Fors tilida sodda gaplar

Ot-kesimli sodda yig'iq gaplar. So'roq gaplarning yasalishi. Intonatsiya. "Ast" bog'lamas va uning to'liq shakli. "hast" so'zining mustaqil ma'nosi. "ast" bog'lamasining unli bilan tugagan so'zlarda qo'llanilishi. Bog'lamaning qisqa shaklining unli bilan tugagan so'zlarga qo'shilishi.

5-mavzu. Izofa

Izofiy zanjir. Izofaning imlo qoidasi.

6-mavzu. Fe'l

Sodda fe'llar. Old qo'shimchali (prefiksli) fe'llar. Murakkab fe'llar.

7-mavzu. Fe'l-kesimli gaplarning tuzilishi.

Hozirgi-kelasi zamon fe'li

Hozirgi-kelasi zamon fe'li yasalishi, imlo qoidasi. Unli bilan boshlanuvchi fe'llarning hozirgi-kelasi zamonda yozilishi.

8-mavzu. Fors tilida ko'makchilar

Old ko'makchilar. Asliy ko'makchilar. را ko'makchisi va uning vazifalari.

Qo'shma fe'llar. Prefiksli fe'llar. Izofali old ko'makchilar.

9-mavzu. Son. Birlik va noaniqlikni ifodalovchi

"yoy". چه so'roq olmoshi

Fors tilida miqdor sonlarning ifoda etilishi. O'ndan yigirmagacha bo'lgan sonlar. Birlik va noaniqlikni ifodalovchi "yoy" qo'llanilishi. چه so'roq olmoshi ishlatilishi.

10-mavzu. Otlarning ko'plik shakli

ها va ان ko'plik qo'shimchalari.

11-mavzu. Buyruq mayli

Buyruq mayli yasalishi. Ayrim fe'llarga qo'shilganda به ning imlo qoidasi.

12-mavzu. Qo'shma fe'llarning birgalikda va ayrim kelish holati

Distant va kontakt fe'llarning qo'llanilishi.

13-mavzu. Aniq o'tgan zamon fe'li

Aniq o'tgan zamon fe'lini yasalishi, qo'llanilishi va imlosi.

14-mavzu. Egalik qo'shimchalari. خود o'zlik olmoshi

15-mavzu. O'tgan zamon davom fe'li

O'tgan zamon davom fe'li yasalishi va qo'llanilishi.

16-mavzu. Sifat

Sifat darajalari.

17-mavzu. Hozirgi-kelasi zamon shart-istak mayli (Aorist)

Otlarning ko'plik shakli. Shart-istak maylining modal so'zlar va modal fe'llardan so'ng ishlatilishi.

18-mavzu. To'ldiruvchi ergash gap

To'ldiruvchi ergash gap yasalishi, qo'llanilishi.

19-mavzu. Maqsad ergash gap

Maqsad ergash gap ishlatilishi. Bog'lovchilarning qo'llanilishi.

20-mavzu. O'tgan zamon natijali fe'li

O'tgan zamon natijali fe'li yasalishi, qo'llanilishi.

21-mavzu. Uzoq o'tgan zamon fe'li

Uzoq o'tgan zamon fe'li yasalishi, qo'llanilishi.

22-mavzu. Son (davomi)

Tartib sonlar. "hame" jamlovchi olmoshi.

23-mavzu. Nisbiy sifatning yasalishi

Otlarning siniq ko'pligi.

24-mavzu. Shaxssiz gap

Shaxssiz gaplarning gapda berilishi.

25-mavzu. Vaqtning ifodalanishi

Yil, oy va hafta kunlari ifodasi.

ياى مصدرى. Harakat nomi. Old ko'makchilarga egalik qo'shimchalarining qo'shilishi. بايستن fe'li ishtirokida yasalgan shaxssiz iboralar.

26-mavzu. Shart ergash gapli qo'shma gaplar

qo'shimchasi bilan yasalgan hozirgi zamon sifatdoshi. آه bilan yasalgan nisbiy sifatlar.

27-mavzu. Aniq kelasi zamon fe'li

Aniq kelasi zamon fe'lining gaplarda qo'llanilish xususiyatlari.

28-mavzu. Majhul nisbat

بايستن "kerak, shart bo'lmoq" modal fe'lining xususiyatlari.

2-bosqich. O'rta bosqich 1

29-mavzu. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar.

Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplarda ياى اشاره ning ishlatilishi.

30-mavzu. Sifatning orttirma darajasi.

Aniqlovchi ergash gapning bosh gapdan keyin joylashishi.

31-mavzu. Gap tarkibida ega va kesimning moslashuvi.

O'tgan zamon shart-istak mayli. ابايستن، خوابيدن، ايستان fe'llarining xususiyatlari.

32-mavzu. Arabiy o'zlashmalar.

1- bob. Arabiy so'zlardan ravish yasalishi. Miqdor sonlarning aniqlovchi vazifasini bajarishi. 2-bob. 3-bob. 4-bob. Zamon va makon ma'nolarini ifodalovchi arabiy so'zlar.

33-mavzu. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gap.

To'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplarning yasalishi, ishlatilishi. 5-bob. 6-

bob.

34-mavzu. Arab tilida otlarning ikkilik shakli.

7-bob. 8-bob. 10-bob. ا -ā va ان -ān qo'shimchali hozirgi zamon sifatdoshlari.

35-mavzu. Fors tilini o'rganishda lug'atlardan foydalanish tartibi

Arab alifbosidagi shamsiy va qamariy harflar. Fors tilida urg'u. Tehron lahjasining o'ziga xos xususiyatlari.

36-mavzu. Otlarning morfologik va semantik belgisiga ko'ra tasnifi.

Otlarning o'ziga xos xususiyatlari. Sifatlar. Shamsiy va qamariy yilnomasi. Modal fe'llar.

37-mavzu. Abjad hisobi.

Fors tilida abjad hisobi berilishi.

38-mavzu. Ravish turlari.

Fe'l negizidan yasalgan otlar. Sifatlarning otlashuvi.

39-mavzu. Kasr sonlarning ifodalanilishi.

Fors tilida kasr sonlarning berilishi. Olmoshlarning qisqa shakli. Undovlar. Undalma.

40-mavzu. Otlarning grammatik kategoriyalari.

Suffikslar yordamida yasalgan otlar. Old qo'shimchalar yordamida yasalgan otlar. Qo'shma so'zlarning yasalishi. Affikslar orqali yasalgan sifatlar.

3-bosqich. O'rta bosqich 2

41-mavzu. Olmoshlar.

Fors tilida olmoshlar va ularning ishlatilishi.

42-mavzu. Qo'shma fe'llarning yasalishi.

Old qo'shimchali fe'llarning yasalishi.

43-mavzu. Sifatdoshlar. Ravishlar yasalishi.

Otlar bilan ifodalangan ravishlar. Affikslar bilan yasalgan ravishlar.

44-mavzu. Izofiy so'z birikmalari.

Izofiy so'z birikmasidagi bosh so'z. Izofiy so'z birikmasidagi tobe so'z. Izofiy so'z birikmasidagi tobe so'zning prepozitiv joylashuvi.

45-mavzu. Bitishuv usuliga ko'ra tashkil topgan so'z birikmalar.

Bitishuv usulidagi so'z birikmalarining tarkibida bosh so'z.

46-mavzu. So'z birikmalar yasalishi.

Old ko'makchi vositasida birikkan so'z birikmalar. Egalik qo'shimchalari vositasida birikkan so'z birikmalar. Murakkab so'z birikmalari tarkibi va turlari.

47-mavzu. Gap nazariyasining ayrim masalalari.

Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplarni farqlash masalasi. Ega.

48 -mavzu. Fe'l-kesim turlari.

Sodda fe'l-kesim. Murakkab fe'l-kesim. Ismiy kesim. Ismiy predikativlar. Fe'liy-ismiy kesim. Kesimning boshqa turlari. Kesimning ramkali qurilmasi.

49-mavzu. Gap bosh bo'laklarining moslashuvi.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari. Aniqllovchi. Hol.

4-bosqich. Yuqori bosqich

50-mavzu. Fors tili sintaksisi haqida umumiy tushuncha, qarashlar va yondashuvlar.

Fors tili sintaksisi haqida ma'lumot. Sintaksisga oid nazariy qarashlar.

51-mavzu. So'z birikmalari sintaksisi.

So'z birikmalarining turlari. Izofali so'z birikmalari. Old ko'makchili so'z birikmalari. Bitishuvli so'z birikmalar. Murakkab so'z birikmalari.

52-mavzu Sodda gaplar sintaksisi.

Bir tarkibli gaplar. Ikki tarkibli gaplar. Shaxssiz gaplar.

53-mavzu. Gap bo'laklari: gapning bosh bo'laklari (ega va kesim).

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari. Ega bilan kesimning moslashuv turlari.

54-mavzu. Fors tilida gap qurilishi.

Ot-kesimli sodda yig'iq. Sodda yoyiq gaplar. Fe'l-kesimli sodda gaplar.

55-mavzu. Qo'shma gaplar sintaksisi.

Bog'langan qo'shma gaplar. Ergashgan qo'shma gaplar. Ega ergash gap. Kesim ergash gap. To'ldiruvchi ergash gap. Aniqllovchi ergash gap. Shart ergash gap. Maqsad ergash gap. Sabab ergash gap. Payt ergash gap.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1-bosqich. Boshlang'ich bosqich

1. Fonetika. Laboratoriyada texnik vositalardan foydalanib, unli, undosh tovushlarni, dariy tilidagi urg'uni, intonatsiya, sintagma, boshqa fonetik hodisalarni o'zlashtirish uchun mashg'ulotlar o'tkazish.

2. Grafika. Grafikani o'zlashtirish uchun fonoyozuvlarni eshitib, yozuvda aks ettirish mashqlari.

3. Ot-kesimli sodda yig'iq gaplarga oid mashqlar.

4. Yuklamalarning ishlatilishiga doir mashqlar.

5. Izofa va izofiy zanjirga oid mashqlar.

6. Otlarning ko'plik qo'shimchalarini olishiga doir mashqlar.

7. Artiklning ishlatilishi va uning imlosiga doir mashqlar.

8. Olmoshlarning qo'llanilishiga doir mashqlar.

9. Sifat darajalarining yasalishi va ishlatilishiga doir mashqlar.

10. Sonlarning ishlatilishiga doir mashqlar.

11. Fe'llarning zamonlarda tuslanishiga doir mashqlar. Fe'llarning mayllarda tuslanishiga doir mashqlar.

12. Sifatdoshlarning ishlatilishiga doir mashqlar.

13. Uy va oila.

14. Dars.

15. Ikki talaba suhbat.

16. Sayl.

17. Eron.

18. Tehron shahri.

19. Eronda yil fasllari.

20. Tarjimai hol.

21. Telefon suhbat.

22. Toshkent shahri.

23. Eron milliy bayramlari.

24. Shaharda dam olish kuni.

2-bosqich. O'rta bosqich 1

25. Aniqllovchi ergash gapli qo'shma gaplarga doir mashqlar.

26. Ot, sifat, ravish yasash va ularni qo'llashga doir mashqlar.

27. Gap tarkibida ega va kesimning moslashuviga oid mashqlar.

28. Ko'makchi so'zlar va ularning ishlatilishiga doir mashqlar.

29. Arab boblariga oid mashqlar.

3-bosqich. O'rta bosqich 2

30. Olmoshlar, qo'shma va old qo'shimchali fe'llarning yasalishiga doir mashqlar.

31. Ravishlarning ifodalanishiga oid mashqlar.

32. Izofiy so'z birikmalari, bitishuv usuliga ko'ra tashkil topgan so'z birikmalari, old ko'makchi vositasida birikkan so'z birikmalari, egalik qo'shimchalari vositasida birikkan so'z birikmalari va murakkab so'z birikmalariga oid mashqlar.

32. Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplarga oid mashqlar. Gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklariga oid mashqlar.

4-bosqich. Yuqori bosqich

33. So'z birikmalari va ularning turlariga doir mashqlar.

34. Sodda gaplarga oid mashqlar. Sodda yoyiq gaplarga oid mashqlar.

35. Qo'shma gaplar va ularning turlariga oid mashqlar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Fonetika. Laboratoriyada texnik vositalardan foydalanib, unli, undosh tovushlarni, dariy tilidagi urg'uni, intonatsiya, sintagma, boshqa fonetik hodisalarni o'zlashtirish uchun mashg'ulotlar o'tkazish.

2. Grafika. Grafikani o'zlashtirish uchun fonoyozuvlarni eshitib, yozuvda aks ettirish mashqlari.

3. Ot-kesimli sodda yig'iq gaplarga oid mashqlar.

4. Yuklamalarning ishlatilishiga doir mashqlar.

5. Izofa va izofiy zanjirga oid mashqlar.

6. Otlarning ko'plik qo'shimchalarini olishiga doir mashqlar.
7. Artiklning ishlatilishi va uning imlosiga doir mashqlar.
8. Olmoshlarning qo'llanilishiga doir mashqlar.
9. Sifat darajalarining yasalishi va ishlatilishiga doir mashqlar.
10. Sonlarning ishlatilishiga doir mashqlar.
11. Fe'llarning zamonlarda tuslanishiga doir mashqlar.
12. Fe'llarning mayllarda tuslanishiga doir mashqlar.
13. Sifatdoshlarning ishlatilishiga doir mashqlar.
14. Ravish yasash va ulami qo'llashga doir mashqlar.
15. Ko'makchi so'zlar va ularning ishlatilishiga doir mashqlar.
16. So'z birikmalari va ularning turlariga doir mashqlar.
17. Sodda gaplarga oid mashqlar.
18. Sodda yoyiq gaplarga oid mashqlar.
19. Qo'shma gaplar va ularning turlariga oid mashqlar.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar fors tilining quyidagi muhim nazariy jihatlariga e'tibor qaratadilar:

Unlilarning talaffuzi, undoshlarning talaffuzi, urg'uni mashq qilish, grafika, arab-dariy alifbosini o'zlashtirish va mashq qilish.

O'qish. Turli matnlarni to'g'ri talaffuz qilib o'qish, mazmunini tushunish, grammatik tahlil qilish.

Tarjima, ona tilidan fors tiliga va fors tilidan ona tiliga og'zaki va yozma tarjima qilish, nutq, og'zaki so'zlashuv, dialoglar uyushtirish, savol-javob qilish kabi tilning muhim jihatlariga e'tibor qaratishlari kerak.

Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

Kurs ishi tasdiqlangan o'quv rejada ko'zda tutilgan ta'lim yo'nalishlarida bajariladi.

“Asosiy sharq tili (fors tili)” fanidan kurs ishi muayyn mavzu bo'yicha umumiy yaxlitlikka ega ilmiy-amaliy fikrlarni aks ettiruvchi loyihaviy ish hisoblanadi. Kurs ishi auditorlik faoliyati rivojlanishi darajasiga doir masalalarni aks ettirishga mos kelishi talab etiladi.

Kurs ishi mavzuning dolzarbligi va erishilgan natijalarning amaliyotga tadbiqu, uning uslubiy darajasi hamda rasmiylashtirilishiga qarab baholanadi. Kurs ishini bajarishning muhim bosqichi rejada belgilangan savollar yoritilishida o'zaro nazariy va amaliy aloqadorlikni ta'minlashdir. Kurs ishining tarkibiy tuzilishini to'g'ri shakllantirish talabaga uning maqsadi va vazifalarini aniq belgilab olish hamda ko'zlangan natijaga erishish yo'llarini, shuningdek, kurs ishini tayyorlash bosqichlarini ketma-ket bajarishga imkon yaratadi. Kurs ishining tarkibiy tuzilishini to'g'ri ishlab chiqilishi talabaga izlanishning oldiga qo'yilgan maqsad hamda natijalarini aniq ifodalash, fikrlarni mantiqiy bayon etish uslublari va kurs ishini tayyorlash

bosqichlarini ajratish imkonini beradi.

Kurs ishi talabaning salohiyati hamda fan bo'yicha chuqur bilim va amaliy ko'nikmaga egaligini namoyon qiladi. Kurs ishida o'rganiladigan masalalarning nazariy jihatlarini, aniqlangan muammolarini, qo'yilgan vazifalarni tahlil qilish hamda muammolarni hal etishni ko'zlangan holda reja tuziladi va shu asosida bajariladi. Talaba kurs ishi bo'yicha izlanish natijalarini yoritishda auditni tashkil qilishning o'ziga xosligi, xorijiy davlatlarning tajribalari va orttirgan amaliy yutuqlarni umumlashtirgan holda belgilangan muammolarning yechimi yuzasidan yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqadi va ularni bartaraf etish yo'llarini tavsiya etadi.

Kurs ishini himoya qilishga quyidagi umumiy talablar qo'yiladi:

- muammoni bibliografik tahlil qilish;
- to'plangan materiallarni tanqidiy o'rganish;
- taklif va tavsiyalarni asoslab berish;
- fikrni ketma-ketlikda, muayyn izchilikda bayon qilish;
- kurs ishini qo'yilgan talablar bo'yicha rasmiylashtirish.

Kurs ishlarining namunaviy mavzulari

Ushbu fandan yoziladigan kurs ishining maqsadi dariy tili fonetikasi, morfologiyasi, leksikasi, sintaksisiga doir mavzu va muammolarni ilmiy adabiyotlardan foydalanib yoritib berishdir.

Kurs ishi uchun quyidagi mavzular tavsiya qilinishi mumkin:

1. Izofali so'z birikmalarining semantikasi.
2. Old ko'makchili fe'liy so'z birikmalarining ishlatilishiga doir.
3. Bitishuvli so'z birikmalariga doir.
4. Birikma olmoshli so'z birikmalariga doir.
5. Shaxssiz sodda gaplar.
6. O'tgan zamon fe'l formalarining hozirgi zamon Eron prozasida ishlatilishiga oid.
7. Ko'plik formalarining Eron matbuoti materiallarida ishlatilishiga oid.
8. Fors tilida “yo”larning vazifalari.
9. Sifatdoshlarning otlar va sifatlariga aylanishi.
10. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar va hokazo.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Xorijiy til va adabiyoti fanidan mustaqil ishlar maqsadi – talabalarning kasbiy kommunikativ faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish, ularning ijodiy faoliyatini o'stirish va xorijiy til va adabiyoti ustida mustaqil ishlay olish malaka va ko'nikmalarini hosil qilish va rivojlantirishdan iborat.

• Talabalarning til tayyorgarlik sifatini oshirib borish, til va mutaxassislik bo'yicha adabiyotlar ustida ishlay olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish.

• O'z kasbiy bilim va malakalarini keyinchalik mustaqil to'ldirib va yangilab borish ehtiyojlarini yaratish va saqlab qolish, xorijiy til va adabiyoti bo'yicha yaratilgan malaka va ko'nikmalarni o'stirib, rivojlantirib borish;

• Talaba bajarishi kerak bo'lgan ishlarni to'g'ri tashkil qilish, kelib chiqadigan qiyinchiliklarni oldindan bila olish, his etish va ularni bartaraf qilish yo'llarini topa olish.

• Ibrat farzandlari platformasidan mustaqil ta'lim doirasida samarali foydalanish.

• Fanga doir videomahsulotlardan foydalangan holda mustaqil ta'limni olib borish.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Ko'rsatish olmoshlari.
2. Yevropa kalendari. Eron shamsiy va qamariy kalendarlari.
3. Fe'llarning tuslanishi.
4. Modal fe'llar va modal so'zlar.
5. Fe'llarning majhul darajada tuslanishi.
6. Ravishdosh.
7. Boshqa turdagi yuklamalar.
8. "Hast" va "ast" bog'lamasining tuslanishi.
9. Fors tilida yo'ylar.
10. Sifat darajalari.
11. Holat ergash gap, istisno ergash gap, qiyosiy ergash gaplar.
12. Old ko'makchili so'z birikmalari.
13. Shart istak mayli.
14. Fe'lining o'tgan zamon negizidan yasaluvchi fe'l shakllari.
15. Arab fe'l boblari.
16. Aniqllovchi ergash gapli qo'shma gap.
17. Sonlarning ifodalanishi: sanoq, tartib, kasr sonlar. Foizlar.
18. Ravish turlari.
19. Otlarning yasalish usullari.
20. Sifatlarning yasalish usullari va h.

Quyidagi mavzularda insholar yozish tavsiya etiladi:

1. Mening kun tartibim.
2. Mening orzum.
3. Mening oilam.
4. Mening ish joyim.
5. Toshkentimiz ko'rki.
6. Eron bilan do'stona aloqalar.
7. O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat.
8. Bugungi kun yoshlar nigohida.
9. Sevimli asarim.
11. Sharqshunoslik instituti.
12. Do'stlik nima? Do'st deb kimni aytaman.
13. Eron adabiyoti namoyandalari.
14. O'zbekiston qadamjolari.
15. Navro'z.
16. Sport.

Yuqori kurslarda mustaqil ish sifatida uy o'qishlari uyushtirish maqsadga muvofiq bo'lib o'qish hikoya, dostonlar tavsiya etiladi.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- asosiy sharq tilining morfologik tuzilishi va tovush tizimini;
- asosiy sharq tilidan o'qitish olib borilayotgan tilga tarjima qilish amaliyoti spetsifikasi va stilistik xususiyatlari, me'yoriy grammatika asoslarini;
- asosiy sharq tilning rivoji va til doirasidagi ekstralingvistik shakllanishning asosiy faktorlari hamda tarixiy manbalari, uning dialektik xilma-xilligini;
- qiyosiy-tarixiy tilshunoslik sohasidagi munozarali masalalarni;
- yozma adabiy til tarixi, yozma yodgorliklar tili haqida **tasavvurga ega bo'lishi**;
- asosiy sharq tilining yozma, adabiy va og'zaki shakllarini;
- tilning ilmiy tavsifi, yozuv, grafik xususiyatlari, orfografiyasi, puntuatsiyasi, leksik-grammatik xususiyatlari, so'z yasalishi va uning tuzilishi, boshqa tillardan so'z o'zlashtirish qonuniyatlarini;
- sodda va qo'shma gaplar, so'z birikmalari, leksika va yozma nutq, dialektik leksikaning asosiy xususiyatlarini;
- matn tili, yozuv xususiyatlari, imlo va puntuasion xususiyatlari, leksik-grammatik xususiyatlari, so'z yasalishi va uning tuzilishi, boshqa tillardan so'z o'zlashtirish qonuniyatlarini;
- ilmiy atamalar tizimi, lingvistika va adabiyotshunoslikka tegishli tushunchalarni **bilishi va ulardan foydalana olishi**;

Bular bilan bir qatorda bakalavr:

- asosiy sharq tilidagi adabiy matnlarni o'qitish olib borilayotgan tilga tarjima qila olish;
- asosiy sharq tilida chet ellik mutaxassislar bilan muayyan sohada va umumiy masalalarda to'laqonli jonli muloqot olib borish **ko'nikmasiga ega bo'lishi**;
- har turli va murakkab matnlarni o'qitish olib borilayotgan tildan asosiy sharq tilining hozirgi adabiy shakliga yozma tarjima qila olish;
- asosiy sharq tilida muloqot qilish, nutq so'zlash;
- asosiy sharq tilidan o'qitish olib borilayotgan tilga suhbat, nutq va ma'ruzalarni og'zaki izchil va sinxron tarjima qila olish;
- asosiy sharq tili va o'qitish olib borilayotgan tildagi ma'lumotlarni qo'llab annotatsiya, referat, ma'lumotlar to'plash, tuzish **malakalariga ega bo'lishi kerak**.

4 VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;

	<ul style="list-style-type: none"> • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish. o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish. yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Abdusamatov M., Fors tili., -T., -2006 2. Quronbekov A., Vohidov A., Ziyayeva T. Fors tili. -T., 2006. 3. Quronbekov A., Vohidov A., Ziyayeva T. Fors tili. -T., 2009. 4. Азимджанова Д.А. Учебник персидского языка- Т., 2012. 5. رضا مراد صحرايي، افسانه غربيي، داود ملك لو، سمانه صادقى، مينا (2) براى آموزان سطح مقدماتي، تهران ۱۳۹۵ 6. رضا مراد صحرايي، افسانه غربيي، داود ملك لو، سمانه صادقى، مينا (2) براى آموزان سطح پيش ميانه و ميانى تهران، ۱۳۹۶ <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston”, 2016. 8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: “O'zbekiston”, 2017. 9. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: “O'zbekiston”, 2017. 10. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. 11. Xodiyeva N. Fors tilidan mashqlar to'plami., -T 2010. 12. Гладкова Е. Л. Персидский язык для экономистов — международников: учебное пособие для старших курсов и магистратуры. — М.: МГИМО-Университет, 2008. 13. Гладкова Е.Л., Семенова Е. В., Мелехина Н. В. Персидский язык. Общественно-политический перевод: учеб.-метод. комплекс: уровень — бакалавриат. — МГИМО (У) МИД России, каф. индоиран. и афр. яз. — М.: МГИМО-Университет, 2010). 14. Овчинникова И.К., Иванов В.Б. Учебник персидского языка., -М., 2002 <p>Axborot manbalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 15. www.ibratfarzandlari.uz 16. www.ziyonet.uz

	<ol style="list-style-type: none"> 17. www.Persionbook.rg 18. www.irandoc.ac.ir
7	<p>Fan dasturi “Eron-afg'on filologiyasi” kafedrasida ishlab chiqilgan va 2024 yil “28” 06 dagi 20 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2024 yil “01” 07 dagi 11 -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8	<p>Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • M.R.Habibova – TDSHU “Eron-afg'on filologiyasi” kafedrasida katta o'qituvchisi; • N.N.Nuriddinov – TDSHU “Eron-afg'on filologiyasi” kafedrasida o'qituvchisi; • S.U.Sultanxodjayeva – TDSHU “Eron-afg'on filologiyasi” kafedrasida o'qituvchisi.
9	<p>Taqrizchilar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • N.Z. Yusupova – O'zbekiston Qurolli Kuchlar Akademiyasi Tillar kafedrasida dotsenti; • F.A.Nizomova – Toshkent islom akademiyasi, Sharq tillari kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi.